
3-SEKTOR RAHBARI VA YOSHLAR UCHRASHUVI: SAMIMIY VA OCHIQ MULOQOT

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi tadbir va loyihalarning navbatdagisi sifatida bugun Toshloq tumanida 3-sektor rahbari va yoshlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Tuman hokimligi, tuman mudofaa bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi, Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda dastlab harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi. Shundan so‘ng, tadbirga tashrif buyurgan yoshlarga harbiy qism orkestri tomonidan sho‘x qo‘shiqlar taqdim etildi.

Tuman hokimligi binosida 3-sektor rahbari, tuman IIB boshlig‘i podpolkovnik Avazbek Kattabekov, sektor hududi mahallalaridagi uyushmagan yoshlar hamda umumta‘lim maktabi bitiruvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda yoshlarning takliflari, fikr mulohazalarini tingladi.

Tadbir davomida sektor rahbari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma‘lumotlar berdi. Yoshlar tarbiyasi, yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish yo‘nalishidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

Uchrashuvda turli sohalarda yutuqlarga erishayotgan yoshlar o‘z muvaffaqiyatlarini tengdoshlari bilan bo‘lishdilar. Mahallada, maktabda namuna ko‘rsatgan yoshlarga IT markazida o‘qish uchun 50 foizlik chegirma sertifikati hamda esdalik sovg‘alari topshirildi. Tadbirda san‘atkorlar tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlar yoshlarga yuqori kayfiyat ulashdi.

2024-02-21 17:41:00